

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 30 - yanvar - 5 - fevral N:5 (66546)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

QILICHDAN QALAMNI A'LO BILGAN ZOT




3 - BETDA

QIZCHA VA BURGUT



6 - BETDA

QIROL ARTURNING JAJJI SHOGIRDI



8 - BETDA

Charos Po'latova Shayxontohur tumanidagi 192-sonli o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi. «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining maktab sardori, tumanda esa harakatning ma'naviy-ma'rifiy sohasi bo'yicha sardor.

– Bilishimizcha, sizning tashabbusingizda maktabning eng faol o'quvchilari birlashib, «Muruvvat yurishi» nomi bilan bolalar shifoxonalariga tez-tez tashrif uyushtirishar ekan. Ko'makchilaringiz ham bormi?

– Birinchi navbatda do'stlarim, qolaversa, maktabimiz rahbari Olmaxon opa hamda ustozlarim.

– «Muruvvat yurishi» misolida faoliyatingizdagi istalgan bir tadbirning uyushtirish bosqichlari haqida gapirib bersangiz...

– Avvalo o'quv yilining boshida ikki chorakka bag'ishlab ish reja tuzib, tasdiqlatib olaman va shu asnoda birma-bir ishlarimni amalga oshiraman. «Muruvvat yurishi» haqida aytadigan bo'lsam, ilk qiladigan ishim maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlarini olib boradigan Mo'vzura opaga rejamni aytib, kerakli ko'rsatmalarni olaman. Keyin, eng faol o'quvchilar kengashida bir o'quvchini yig'iladigan sovg'a-salom nazoratiga, yana birini boradiganlar ro'yxatini tuzishga javobgar qilib, qiladigan

ishlarimizni taqsimlab olamiz. Yig'ilgan sovg'alar kam-



liboslar modellarini yaratar ekansiz.

– Albatta! Ayniqsa, hozir yosh, charchoq bilmaydigan chog'imda hamma ishga ulgurib qolishning ayni payti deb o'ylayman. Ko'pincha qariyalarimiz, «Eh, at tang, yoshligimda mana

bilmagan holda turli yomon ta'sirlar domiga osongina tushib qolish ehtimoli ko'proq kuzatilarkan. Shuning uchun bo'lsa kerak, doimo biron ish bilan band bo'lishga harakat qilaman.

– Siz uchun eng quvonchli kun qachon?

– Albatta tug'ilgan kunim. Bu kunni men rosa bir yil orziqib kutaman. Barcha do'stlarimni shu kuni meni tabriklab, o'zlarining eng iliq tilaklarini aytishlari kelasi bir yil uchun menga kuch berib turadi.

– Tasavvur qiling, Allovuddinining sehrli chirog'i qo'lingizga tushib qoldi. Shunda do'stlaringiz uchun nima so'ragan bo'lardingiz?

– Avvalo, yurt tinchligini, so'ng tuganmas sog'liq so'rardim.

Faqatgina sog'lom bo'libgina musaffo osmon qo'ynida boshqa ezgu orzularimiz haqida shirin xayol sura olamiz. Do'stlarim ona yurtning, kurrai zaminning ajralmas bir bo'laki ekanliklarini his etib, uning gullab-yashnashiga munosib hissalarini qo'shsinlar. Bu yo'lda mening o'zim ham charchoq nimaligini bilmay, doimo olg'a intilishga so'z beraman.

Muhiddin ALIMBAYEV suhbatlashdi.

BO'SH O'TIRISHGA VAQTIM YO'Q

lik qilsa, qo'shimcha tarzda o'z qo'llarimiz bilan o'yinchoqlar tikamiz, yasaymiz. Birinchi qiladigan ishlarimizdan biz boradigan kasalxonaning mutasaddi rahbarlari bilan ham oldindan gaplashib, ular uchun qulay bo'lgan vaqtni belgilab olish.

– Siz yana tasviriy san'at bilan ham shug'ullanib,

shu ishni qilsam bo'lar ekan», deb biroq o'ksinadilar. Bu hol men bilan ham sodir bo'lishini xohlamayman.

Ancha avval «Internet» orqali bir ma'lumotni o'qigan edim. Unda yozilishicha, bizning yoshimizdagilar ko'plab tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'larkan. Bo'sh vaqtini to'g'ri sarflay olmagani bolalarda o'zlari

«Kamolot» – bizga qanot

SARDOR O'ZI KIM?

Tengdoshingiz Nargiza KARABAYEVA esa Hamza tumanidagi 204- maktabning 11- «V»

sinfida o'qiydi. Tirishqoq, izlanuvchan. U maktabda bir necha yildan buyon «Kamolot» YOIH sardori bo'lish bilan birga Hamza tumanida «Ijtimoiy – iqtisodiy» soha sardori ham ekan.

– Nargiza, «Kamolot»ga a'zo bo'lish uchun nima qilish lozim?

– Birinchi navbatda o'quvchi fikrini tortinmasdan bayon qilib, uni himoya ham qila olishi shart. To'g'ri, ba'zi birovlarining o'qishi sust, ammo juda kirishuvchan fazilatga ega. Ularni ham safimizga qabul qilsak bo'ladi. Chunki kelajakda o'z-o'zidan yuksalishga, yaxshi o'qishga intiladi. «Kamolot» – bu katta kuch, birlik, jipslikdir. Mening o'zim 2003-yili bu tashkilotga a'zo bo'lganman. O'sha paytda «Obod mahalla» yiliga bag'ishlab «Mahallam – mening faxrim» mavzusida insholar tanlovining tuman bosqichida faxrli birinchi o'rinni egallagan edim. Bu

muvaffaqiyatimdan so'ng, o'zimga bo'lgan ishonchim yana ham ortdi.

– «Sardor» o'zi kim?

– «Sardor» hech bir ishda bo'sh kelmaydi. Tezkorlik, tashkilotchilik vazifasining ildizi bo'lsa, boshqalarni ortidan ergashтира olish uning bosh g'oyasidir.

– Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

– Hamisha boshqalarga nimalarnidir so'zlab bergim keladi. Ularning ruhiy holatini tushungim, qo'limdan kelganicha ko'maklashgim keladi. Birovlarning kamchiligini emas, ozgina bo'lsa ham muvaffaqiyatini ko'rsatsam deymen. Fikrimcha, bu ishni ko'proq jurnalistlar bajaradi, deb o'ylayman. Shuning uchun ham maktabni tugatib, yetuk jurnalist bo'lmoqchiman.

Hayotdagi shioringiz, degan savolimizga, zukko dugonangiz o'zining ikki misra she'ri bilan javob berdilar:

Sahovat, ehsonni sen kutma, yarat,
Anduh bag'ridagi insonni yayrat.

Nuriddin HAYDAROV suhbatlashdi.



50 YOSHLI KUTUBXONA

Assalomu alaykum, hurmatli «Tong yulduzi» gazetasi! Men Dildora Yodgorova Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi 1-son bolalar kutubxonasida ishlayman. Yaqinda ziyo maskanimiz 50 yoshga to'ldi. Ushbu sanaga bag'ishlab katta tadbir o'tkazdik. Kutubxonamizning eng faol kitobxonlari bo'lmish bolajonlar o'rtasida o'tkazilgan she'riy mushoiralar, jozibali kuy-ko'shiqlar va raqslar ijrolari tadbirimizga zavq ulashdi. Ayniqsa, ziyo maskanimizning faoliyati aks ettirilgan «Monitoring oynasi» ko'rgazmasi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Kutubxonamizda «Tong yulduzi» gazetasining barcha sonlarini o'quvchilar bilan birgalikda o'qib, muhokama qilib boramiz. Kuni kecha qo'limizga tekkan 1-sonini o'quvchilarimiz maroq bilan o'qib chiqishdi. Gazeta rang-barang mavzular asosida o'qimishli tarzda chop etilayotgani bois, kundan-kunga uning mushtariylari ko'paymoqda. Sizlarga yozgan maktubim bilan birgalikda ikki nafar faol kitobxon bolajonlarimizning dilmolarini ham qo'shib yuborayapman. Sahifalaringizdan joy ajratsangiz g'oyat mamnun bo'lardim.



Ijodiy ishlarigizga hamisha omad tilab,
Dildora YODGOROVA.

Qo'sh maktublar

MAKTUBIMNI HAMISHA

YULDUZI

Men ham sinfdoshim Islom singari «Kitob – bilim manbai» klubining faol a'zosiman. Darsdan bo'sh paytlarimizda, ta'til kunlarida hamisha kutubxonaga qatnaymiz. Tabiatni, qushlarni yoqtirganim bois shu mavzudagi kitoblarni ko'p o'qiyman. Ziyo maskanimizda biz o'quvchilar uchun barcha sharoitlar mavjud. Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ni ham shu yerda o'qib muhokama qilamiz. Uning rang-barang sahifalari barchamizga birdek yoqadi. Ushbu maktubim orqali barcha do'stlarimni kitobxon bo'lishga chorlayman.



Behro'z TOSHBADALOV,
4-sinf o'quvchisi.

KITOB, GAZETA, JURNAL BIZ BILAN

Men Islom Alimov, tasarrufidagi «Kitob – bilim shirinso'z, bilimdon Sevimli maskanimizdan olib o'qiyman. Yaqinda gazetasining 2006-yilgi yangi ushug'i ham non», deb to'yintirilgan nonning sog'ligimiz Ushbu maqolani do'stlarim bilan Bilasizmi, qiziqarli kitoblar, o'rganishga ham qiziqaman. Bir so'z bilan aytganda, kutubxonamiz haqiqiy nurxonamiz desam adashmayman.



tumanimizdagi 1-son bolalar kutubxonasi manbai» klubining a'zosiman. Biz kitobxonlar kutubxonachi opalarimizdan doimo minnatdormiz. hamisha o'zimiz xohlagan mavzularidagi kitoblarni kutubxonamizning o'quv zalidan «Tong yulduzi» sonini olib o'qidim. Menga «Non – nonning nomlangan maqola juda yoqdi. Uni o'qib, uchun koni foyda ekanligini yaxshi bilib oldik. qiziqib muhokama qildik.

gazeta va jurnallar o'qishdan tashqari, samo jismlarini gazeta va jurnallar o'qishdan tashqari, samo jismlarini aytganda, kutubxonamiz haqiqiy nurxonamiz desam adashmayman.

Islom ALIMOV,
Angor tumanidagi 35-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

MAKTUBIMNI OLDINGMI?


Aziz tahririyat xodimlari! «Tong yulduzi» gazetasini juda ko'p marta o'qiganman. O'g'il bolalarga

Izhor



qaraganda, qizlar ko'proq maktub yozishar ekan. «Maktabdagi muhabbat», «Qulog'ingga gapim bor» sahifalarini mazza qilib o'qiyman. Ba'zi tengdoshlarimga bu maktubim erish tuyular, ammo men bu safar yuragim qatiga yashirib yurgan sirlarimni oshkor etmoqchiman: Men sinfimizdagi Sarvinoz ismli qizni yoqtiraman. Bu haqda o'ziga bir necha marta xat yozganman. Ammo undan javob yo'q. Balki olmaganmikin? U birovlarining qo'lga tushib, rosa kulgi bo'layotgan bo'lsam-a?

Sarvinoz! Senga shu bilan nechanchi marta xat yozayotganim esimda yo'q. Balki maktublarim yetib bormayotgandir? Yoki javob yozishga vaqting bo'lmayaptimi? Nima bo'lganda ham menga rad javobi berishingni sira xohlamaidim. Yuragimda endigina nish urib kelayotgan niholni toptash sendek qizning qo'lidan kelmasa kerak. Ba'zi qizlar toshbag'ir bo'lishadi, deyishadi. Men bu gappa ishonmayman. Qizlar rahmdil, oqko'ngil bo'lishadi. Tabiat ularni shunday qilib yaratgan. Aks holda dunyo charxpalagi teskari aylanib ketgan bo'lardi. Sarvinoz! Agar bu maktubimni ham olsang, iltimos, menga javob xati yo'lla. Bir parchagina qog'ozga bitilgan so'zlaring butun bir vujudga urib turgan yurakka dalda bo'ladi, deb o'ylayman. Sinfdoshing Bahrom.



SAMBONING KURASHIDAGI ERTAK

...Bor ekanda yo'q ekan demang, yurtimizda sambo kurashining yengilmas piri Hojiakbar ota degan zo'r polvon bor ekan.

Kunlardan bir kuni bu polvon ota avtohalokatga uchrabdi. Shu-shu polvonning ikkala ko'zi ham ko'rmay qolibdi. Dunyo otaga omad eshiklarini ochgan paytda...

Keling, polvon ota bilan yaqindan tanishib olaylik: Hojiakbar ota 1927-yili Toshkentning Temiryo'ldi mahallasida tug'ilganlar. Ularning oilasida Mirahmad aka ham o'z vaqtida belbog' kurashi bo'yicha zo'r bo'lgan. Hojiakbar otaning dadalari Mirsamad buva kolxoz raisi bo'lib ishlagan ekanlar. Bir kuni bu xonadonga farg'onalik mashhur polvonlar kelishibdi. Rais buva o'g'illaringizdan ham polvonni bormi, deb so'rab turganlarida 12 yoshli Mirahmad otasiga ovqat olib kelib qolibdi. Shunda ota kenja o'g'il Mirahmadga:

– O'g'lim, shu polvon amakingni boloxonaga olib chiqqin, - debdilar. Kichik polvon bu ishonchdan ruhlanibmi, 130 kg.li polvonni dast ko'tarib boloxonaga qimirlatmasdan olib chiqibdi. Pastda qolgan polvonlar bu holatdan qo'rqib ketib, quyonni rasmni chizibdilar.

– Rais buva, kichik polvonga ayting, - dermish katta polvon dag'-dag' titrab, - endi meni pastga olib tushsin, bu o'g'lingiz chindan ham yengilmas ekan.

Hojiakbar Mirsamatovga kelsak, ular ham shunday polvon bo'lgan ekanlar. Hatto maktab o'quvchilik paytlarida o'qituvchilar u kishiga jismoniy tarbiya darsini o'tishga ishonishar ekan.

1947-yili polvon bobo boshchiligidagi erkin kurash bo'yicha jamoamiz shaharda birinchilikni qo'lga kiritibdilar. Xursandchilik vaqtida kavkazlik polvonlar bizning kurashchilarimizga zo'rlik qilishibdi. Shu voqeaning ustiga Hojiakbar bobo kelib qolibdilar, devordan bir sakrab o'tib, o'zlarini zo'r degan polvonlarni birvarakayiga o'ntasini yiqitib qo'yibdilar. Bu voqeadan xabar topgan sambo kurashi asoschisi Arkadiy Xarlampiyev yurtimiz polvonlariga havas qilibdi. Yengilmas polvon Hojiakbar boboga qiziqib qolibdi. O'z yurtiga taklif qilibdi va sambo kurashini o'rgatibdi. Ustozining bergan saboqlarini qunt bilan o'rgangan bobo o'sha vaqtlarda Litva, Latviya, Estoniyaga borib yoshlarga saboq beribdi. Uzoq o'lkalarda yurib yurtini sog'ingan polvon nihoyat 1950-yili sambo kurashini mukammal o'rganib yurtga qaytibdi. Aytishlaricha, xuddi shu sana O'zbekistonga sambo kurashini olib kirgan kun ham emish. Hojiakbar polvon bu vaqtlarda afsonaviy insonga aylangan ekan-da. Polvonning shogirdlari bu vaqtlarda oltin medallarni hecham kumushga almashtirmagan ekanlar.

Shunday xotiralarni eslagan polvon bobo ko'zlari ojizligidan bugun tushkunlikka tushmaydilar. Sportga mehr qo'yib, obro'-e'tibor topganlaridan bolalik ko'chalarida behuda ishlarga berilmay o'sganlaridan xursand bo'ladi. Istiqolning bergan ne'matlaridan duoga qo'l ochadilar. Hojiakbar otaning 20 dan ortiq nabiralari ham hozirda sport bilan muntazam shug'ullanadilar. Ota 80 yoshga qadam qo'ydi. Hovlisida gullarni parvarish qilyaptilar. Shuning bilan birga mahalla bolalari bilan vaqtlarini o'tkazishni ham yoqtiradilar. Ilohim, oramizdan bunday tabarruk insonlar izi yo'qolmasin.

Said VALIYEV,

«Vatanparvar» markaziy kengashi
targ'ibot ishlari bosh mutaxassisi.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi.

Maqsadimiz: Bilimli bo'ling, chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

QILICH DAN QALAMNI A'LO BILGAN ZOT

NAVOIY KELARDI ASTROBODDAN

Tonggacha uyquni quvib ko'zidan,
G'azallar bitardi g'azal izidan.
Ilohiy kuch olib haqlik so'zidan,
Navoiy kelardi Astroboddan.

Xalq sevar, qadamda ta'zim qilardi,
Yurtga adolatni mudom tilardi.
Qilichdan qalamni a'lo bilardi,
Navoiy kelardi Astroboddan.

Husayn Boyqaro shoh bo'lsa ham gar,
Uning so'zlariga boshlarin egar.
Eng oliy mukofot ulusdan tegar,
Navoiy kelardi Astroboddan.

Hamon armondaman so'ray deb bir so'z,
Nechun hech oromni o'ylamagansiz?
Olis kelajakka tikkanicha ko'z,
Navoiy kelardi Astroboddan.

Jamila ERDONOVA.



Navoiy bobomiz o'z ijodlari bilan o'zbek adabiyotining
so'nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va
Xurosonning butun ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga
ulkan hissa qo'shdi. Siz-u biz ularning ijodidan
qanchalik ko'p bahramand bo'lsak, o'qib-o'rgansak
aslo kam bo'lmaymiz.

So'z jism bo'stonidagi daraxtdir, so'z ruh daraxtlaridagi
mevadir. Insonning jismi gulshan bo'lsa, nutq undagi
xushovoz bulbuldir. Bulbulning navosi so'zdir, jonga rohat
beruvchi nag'masi ham so'zdir. Agar so'z bo'lmasa, baxtsizlik
yuz bergan bo'lur edi, bulbul esa navosiz nutq qilardi. Bunday
bulbulni navosiz ko'rmang va benavolikni ham bulbulga ravo
tutmang! Xususan, so'z bulbuliga Navoiy zordir, unga sir bog'i
gulzordir. Uning bog'ini yashnatib, navo bergin va bog'ini doimo hosildor
tutgin! Uning gulzori gullarni toza aylab, bulbulini baland ovozli qil! Gulining
shamini yanada yorug' qilib, atrini xushbo'y aylab, qushining kuyini yoqimli
qil! Kuyini el ko'ngliga maqbul qilib, har qanday yaxshi ish bo'lsa, uning
bila mashg'ul et!

SHAM

Chiroq yo'q bo'lganda,
Yordam berar bizlarga.
Uyimizni yoritib,
Beradi u birpasda.
Lekin sham qorong'udan
Qo'rqadimi, bilmadim.
Chirog'imiz o'chganda
Yig'layveradi doim.
Chiroq o'chsa yig'laydi,
Chiroq kelsa tinadi.
Erib tamom bo'lguncha,
Bizga foyda beradi.

Mohira

ABDUSHUKUROVA,

Toshkent shahar,

Uchtepa tumanidagi

116 - maktabning 5-«B»

sinf o'quvchisi.

VATAN SEHRI

Ota meros sadoqatim,
Vatanimga bor hurmatim.
Unga bitta so'z aytaman,
Dilda to'la muhabbatim.

Buyuk so'zlar aytgim kelar,
Onamdayin suygim kelar.
Vatan sening qo'shig'ingni,
Yuragimdan to'kkim kelar.

Zarifa IBROHIMOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumanidagi
136-maktab o'quvchisi.

DO'STLIKKA

Men negadir mamnun yuraman,
Do'stlarimni yaxshi ko'raman.
Uzun-uzun ertaklarimni,
Har kun dildan mag'rur to'kaman.
Shod boraman hayot yo'lida,
Qo'shiqlari yoqar ko'nglimga.
Do'stlarimdan mamnun bo'laman,
Kuy-qo'shiqlar yozib qalbimga.

SHAHIRIM

Guppa-guppa yog'ar qor,
El rizqin butun etib.
Ona zamin yuvilar,
Qorga ko'milib ketib.

Samarqandim ko'ksida,
Registon mag'rur turar,
Peshtoqli Tillakori,
Qor bilan xayol surar.

Borliqda qish allasi,
Ko'ngillarga zavq berib.
Ayoq bobom shay turar,
Yolg'ondan qovoq kerib.



Nargiza AHMATOVA,
Samarqand shahridagi
55-umumta'lim maktabining
6-«E» sinf o'quvchisi.

Gavhar yog'diruvchi bulutday madadkorligi, Mavlono Nuriddin
Abdurahmon Jomiyning madhida qalam uchining shirinso'zligi va ko'ngil
sadafining so'z gavharlarini sochmog'i xususida ta'rif o'zidir. U fazl koni,
ilm daryosi, dengiz-u kon oshnosi. Ilm daryosida u samo gumbaziday, dengiz
ichida aningdek mehr gavhari topilmas. Sirlarni kashf etish uning tabiatida
mavjud, buni unga tangri ato etgan. Riyozatda fikri osmonday tiniq bo'lib, u
falak ekinzorini bahramand etadi.

Jahon dengizi ichida bo'lmish har bir la'l-javohirni baland haroratda toblab
eritsa, asl toshmi-yo'qmi ekani bilingani kabi har kim o'zining zotan bir qatra
suvdan paydo bo'lganini fahm etsa bo'ladi. O'tdek toblanuvchi la'l ham, yoqut
ham - hammasi aslida toshdan paydo bo'lgan. Qanday bir bebaho javohir
bo'lmasin, kon uning onasi, tosh uning otasi. Xarsangga qancha shiddat bilan
zarb urmang, parchalamang, baribir ichidagi javohirga hech qanday ziyon va
shikast yetmaydi. Kishi rosa fahm-farosat bilan idrok etsa, odam ham xuddi shu
toza javohirlar kabi asldir. Ota dunu (nokas, tuban) o'g'il sharafli yoki ota latifu
o'g'il kasaf (kasofatli) bo'lishi mumkin va tabiiy. Masalan, Ozar o'g'li Xalillulloh
butlarni sindirgan, butparastlikka qarshi kurashgan kishi bo'lishiga qaramay, uning
o'g'li but yasovchi bo'lib chiqdi. Bahrom ham xuddi shu sifatdagi odam edi.
Bahromning otasi sadaf kabi past edi-yu, bolasi xuddi sadaf ichidagi gavhar
kabi porloq edi. Bu ajablanarli hol emas. Bunisi nimaniki buzdi, unisi borin qaytadan
tuzdi. Bu kimniki o'ldirdi va majruh qildi, u malham qo'yib, ularning jismiga ruh
berdi. Qorong'u tunning zulmati ketib, qorong'ulikdan quyosh balqib, olamni
yoritgan kabi bu quyosh ham shunday nurafshon bo'ldiki, butun jahonni ravshan
va munavvar qilib yubordi. Xuddi mehr-munir jomidek bo'lib, hammayoqqa o'z
zarralari bilan umid nurlarini sochgandek edi. Quyosh saltanat taxtiga chiqib
o'tirarkan, o'z nuri bilan qanday buyuklikni ko'rsa, uni past etadi. Lekin Bahrom
garchi sarkashlik qilganlarni o'z zarbi bilan tuban qilsa ham, pastda yotganlarni
osmoni falakka ko'tardi ham. Kim quyun singari hammani to'zg'itgan bo'lsa,
tez orada uni jilovlab tuproqqa qoradi. Agar biron gavhar oyoq ostida yotgan
bo'lsa, uni toj qilib boshlarga ko'tardi. Mamlakat bog'ini adolat bahori bilan bezadi
va hayot suvlari bilan sug'ordi. U, mamlakatni shunday ko'm-ko'k maysazorga
aylantirdiki, dunyo xuddi jannatdek go'zallashib ketdi. Nimaiki zulm, bedodlik
bilan vayron qilingan bo'lsa, adolat bilan barchasini obod ayladi. U kamronligidan,
shohlar ichra pahlavonligidan shu ishlarni qildi.

Bu kabi g'alabalar o'tmishda Bahromu keyin Xusravi G'ozni, ya'ni, sulton
Husayn Boyqarodan o'zga hech kimga nasib qilmagan. Yozilishi nasib etgan
tarixlar xuddi muddaoyimdagi tarixlardir. Koshki shu tarixlar boshlab Bahromgo'y
qissasini yozmish ustozlarimga ham nasib qilgan bo'lsa edi! Ular bu haqida juda
ham g'aroyib afsonalar yaratgan bo'lur edilar. Shukrlar bo'lsinki, bu daftarni
yozish menga ro'zi bo'lganu ziyofat bog'ining yetti bo'stonini («Sab'ai sayyor»
ni) yaratish mengagina nasib etgan ekan. Eng a'losi shukim, shod-xurramlik
bilan tangriga shukr qilgayman.

Ey Navoiy, ne bo'lsa guftoring, ayla bunyodkim, xudo yoring.

Alisher Navoiyning «Sab'ai Sayyor» asaridan.

BUNI SEN BILISHING KERAK

GIYOHVANDLIK UMRNI QISQARTIRADI

Lazzatlanish uchun pul to'lash kerak, qimmatli vaqtingni sarflashga majbursan. SPID bilan og'rish xavfi faqat o'limga olib keladi. Me'yorida ortiq iste'mol tez o'lim demakdir.

Giyohvandlar orasida o'zini-o'zi o'ldirish oddiy hodisa. Bu dunyoda tez ko'z yumish uni qo'rqitmaydi.

O'Z HUQUQLARINGNI ALBATTA BILISHING KERAK

Bunda senga bola huquqlari to'g'risida Konvensiya yordam beradi. Har bir bola farovon bolalik



huquqiga ega va ushbu muhim konvensiya mutolaasi barcha bolalar huquqlari amalga oshirilishiga erishishda muhim qadam bo'ladi.

3-modda:

Farovonliging uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash huquqiga egasan.

6-modda:

Yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga egasan.

7-modda:

Ism bilan atalish, fuqarolikka, millatiga ega bo'lish, o'z ota-onangni bilish huquqlariga egasan.

12-, 13-, 14-moddalar:

O'z qarashlaringni, fikringni erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi huquqiga egasan.

Va hokazolarni bilib olishing sen uchun faqat foyda keltiradi.

Sobir, Vitalik va Nazira do'stlashib qolgan edilar. Ular doimo birga bo'lib, sportga, kompyuter o'yinlariga qiziqar edilar. Kunlardan bir kuni maktab hovlisida ularning oldiga hammaga «Zo'rovon» laqabi bilan tanish bo'lgan 7-«B» sinfida o'qiydigan naynov yigitcha yaqinlashib keldi. U kulimsiradi va hayotingiz buncha zerikarli-a zumrashalar, - dedi. Zo'rovonning gumashtalari bolalar cho'ntagini ag'darib titkiladilar va «biz talonchi emasmiz, aksi - oq ko'ngilmiz, sizlarning bu saxiylklaringizga xorijiy dixlofos bilan mehmon qilamiz, hali bizdan minnatdor bo'lasizlar», deya kuldilar. So'ngra, kimyoviy moddani rangdor purkagich idishdan yelim xaltachaga sepdilar va bolalar boshlariga kiygizib qo'yidilar. Naynov zaharxanda kuldi: «Chuqurroq nafas olinglar, sportchilar!» Bu voqeaning nihoyasi fojiali bo'ldi.

Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya 1989-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bo'lib, u bola huquqlarini bayon etadi. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya bolalar hayotiga taalluqli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish huquqini belgilab beradi hamda ularning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish zarurligini ta'minlaydi.

OGOHOBO'L!

Giyohvand moddalar seni hayot lazzatlaridan benasib qiladi.

Bu «soxta» hayotdan qutulishning yo'li - bir marta giyohvand moddalarni iste'mol qilishni rad etish.

Bu butun umr undan qutulishga intilishdan osonroq.

Sen giyohvandlik to'g'risida ko'p narsa bilib olding. Balki bu «zahri qotilni» sening do'stlaringdan biri tatib ko'rgandir? Bu «og'u» hammaga har xil ta'sir ko'rsatadi.

Bilib qo'y! Giyohvandlik ko'chasiga kirgan insonda iroda, jasorat, kuch-qudrat yetishmaydi. Qurol bilan odam o'ldirish mumkin, lekin u hamisha ham to'g'ri nishonga olavermaydi. Giyohvand moddalar esa xatosiz nishonga uradi. U sening hayotingni, sog'ligingni, qalbingni jarohatlaydi. Vaqt o'tishi bilan u keltirgan falokatlar albatta yuzaga chiqadi.

Bu salbiy oqibatlarni oldini olishga, o'z hayotingni saqlab qolishga harakat qil!

Munajat SADRIDDINOVA tayyorladi.

Asr vabosi

BIR UMRGA OILASIZ BO'LISHGA MAHKUM ETILASAN

Senga hech kim turmushga chiqmaydi, uylanmaydi. «Yosh keksa» kinga kerak?

Ertami, kechmi senga hech kim kerak bo'lmay qoladi.

Sen sog'lom bolaning otasi yoki onasi bo'lmaysan.

Kasal, erksiz, maqsadsiz kishilar bilan yashashga mahkumsan.

QONUNLAR BILAN MUAMMOLAR KELIB CHIQUISHI MUMKIN

Davlat o'z fuqarolarining rivojlanishi buzilishidan himoya qiladi, sen esa qonun buzuvchiga aylanishing mumkin.

Giyohvandlar vijdon, insof, diyonatni tushunmaydilar. Har daqiqa senga xiyonat qilishlari mumkin.

Mablag' topish uchun o'g'irlikka qo'l urishing mumkin.



Kabir

«KABIR»

GIYOHVANDLIK OQIBATLARI HAR YERDA SENI TA'QIB ETADI

Maktabda yutuqlarga erisholmaysan. Oilada eng yaqin odamlaring bilan aloqani yo'qotasam, qadring ketadi.

Do'stlaring seni tushunmaydi, sendan yuz o'giradi, ular o'qib, o'rganib yutuqlarga erishadi, sen esa...

GIYOHVAND MODDALAR:

Sening organizmingni, Qalbingni, Vujudingni parchalab, Kelajagingni o'g'irlashi mumkin...

AGAR BUNI VAQTIDA ANGLAMASANG

Asabing, Fikring va sezgilaring parchalanadi. Ijodkorliging yo'q bo'lib, erking cheklanadi.

Orzularing parchalanadi.

Va tubanlikka yuz tutasan.

GIYOHVANDLIK SENI BIROVGA QARAM QILIB QO'YADI

Butun hayoting unga qaram bo'lib qoladi, sen qulga aylanasan.

Ozod bo'lish hammaga nasib etmaydi, ozod bo'lish og'ir kechadi.

Dunyoda qimmatbaho boyliging, hayoting parchalanadi, sog'ligingdan ayrilasan.

GIYOHVANDLIK SENING ORGANIZMINGNI PARCHALAB TASHLAYDI

Ko'pchilik giyohvand moddalar miyani eritib yuboradi.

Ko'p kasalliklarga chalinuvchan bo'lasan, himoyalaniishga kuching qolmaydi.

Oddiy zo'riqishlarga yuraging bardosh bermay qoladi.

Hayotimizni dori-darmonlarsiz tasavvur etish qiyin. Xo'sh, uy dorixonasida qanday dorilar bo'lishi va ularni qayerda, qanday sharoitda saqlash kerak? Dori-darmonlarni iloji boricha yosh bolalarning qo'li yetmaydigan joylarda, suyuq dorilarni albatta muzlatgichlarda, tabletkalarni esa saqlash muddati va rangi o'zgarishiga ham e'tibor bergan holda saqlash lozim. Ularni quruq va salqin joyga qo'ying. Agarda ularni muddati o'tgan va bunday dorilardan

Yurtimizda qish kunlar tushishi barchani qiynashi qilmaslik biz olib kelishi d a r m o n l a r n i o'zicha qabul qilish ham ba'zi hollarda, me'da, jigar kabi muhim a'zolarimizga salbiy



TABOBATDAN BIR TOMCHI

rangi o'zgargan bo'lsa, voz kechgan ma'qul.

fasli hukm surmoqda. Sovuq bilan shamollash, yo'tal tabiiy. Kasallikka vaqtida davo kutmagan og'ir asoratlarga mumkin. Turli xil dori-shifokor ko'rsatmasisiz, o'z-

shunday ekan, har birimiz o'z sog'ligimizga e'tiborli bo'laylik.



bobomiz Ibn Sino ham barcha xastaliklarni giyohlar bilan davolaganlar-ku. Masalan, quruq yo'tal bo'lsa, unda tez-tez moychechak, bargizub damlamalaridan foydalansangiz ham bo'ladi. Ushbu damlama yordamida tomog'ingizni chayasiz, yo'tal ancha bosilib, nafas yo'llari tozalanadi. U og'riq qoldiruvchi xususiyatga ham ega. Yo'tal qiynaganda, qaynagan suvga iste'mol sodasi solingan aralashma ham ancha yordam beradi. Yana bir usul: piyoz

yoki sarimsoq tozalanib, qirg'ichdan chiqariladi. So'ng, idishga solib, qaynagan suv quyiladi. Tayyor damlamani suvi soviguncha burun bilan hidlanadi. Bunday damlamadan samarali foydalansangiz bo'ladi. Bu sizga bronxlarda qon aylanishini yaxshilashga va yo'taldan xalos bo'lishingizga yordam beradi.

Xalqimizda kasalni davolagandan ko'ra, uni oldini olgan ma'qul, degan gap bor. Shunday ekan, har birimiz o'z sog'ligimizga e'tiborli bo'laylik.

Umida RUSTAMOVA, talaba.

Aziz bolajonlar, III-chorakni boshlab yuborganingizga ham ancha bo'ldi. «Mening bo'sh vaqtim» ruknimizga kelgan maktublar yig'ilib qolgandi. An'anadan biroz chetga chiqib, bu safargi sahifamizni rasm chizishga qiziqadigan tengdoshlaringizga bag'ishladik. Marhamat, quyida respublikamizning turli viloyatlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning ijod namunalaridan bahramand bo'ling. Bo'sh vaqtlaringizda nimalar qilasiz? Bizga shu haqda maktub yo'llang. Xatlaringizni kutamiz.

BIR YILGA OBUNA BO'LDIK



– Assalomu alaykum, aziz tahririyat xodimlari! Men ukam bilan sevimli gazetamizni har bir sonini qo'ldan qo'ymay o'qib boramiz. Undagi boshqotirma shartlarini, topishmoqlarning javoblarini birgalikda topamiz, she'rlaridan yod olamiz. Shu bois ham bu yil sinfimiz bilan obuna bo'ldik. Ukam bilan bo'sh vaqtlarimizda rasmlar chizishni yoqtiramiz. Chizgan suratlarimizni tahririyatga yuborayapman.



Ruxsora ZIYODULLAYEVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi
15- maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi.


IJODIMDAN ZAVQLANISHSIN

– Assalomu alaykum, tahririyat xodimlari! Men 7-«B» sinf o'quvchisi Marhabo Qoraboyevaman. Gazeta orqali tengdoshlarimning ijodlari bilan tanishib boraman. Ularning she'rlari, hikoyalarini o'qib zavqlanaman. Chunki men tenggi o'quvchilarning shu darajada she'r yozishlari kimni quvontirmaydi deysiz? Albatta bularning ortida sizlarning mehnatingiz beqiyos. Men ham she'rlar yozib, turli ko'rinishdagi rasmlar chizaman. Bu safar tahririyatga chizgan rasmlarimni yuborayapman. Shoyad, mening ham ijodimdan boshqalar zavqlanishsa...

Sirdaryo viloyati,
Guliston tumani.

EPLI BO'LGAN YAXSHI

– Men ham tengdoshlarim kabi bo'sh vaqtlarimni bekor o'tkazmaslik uchun turli yumushlar bilan band bo'laman. Ayniqsa, rasm chizishni juda yoqtiraman. Yana uydagi yumushlarga ham yordamlashib turaman. «Qiz bola



epli bo'lgani yaxshi», deydilar kattalar. Men ham bu naqlga amal qilgan holda epli qizlardan bo'lmoqchiman.

Zarina AHMATOVA,
Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahri,
9-o'rta maktabning 7-«A» sinf
o'quvchisi.

HAVAS BILAN CHIZGANMAN

– Men bo'sh vaqtlarimda ko'proq multfilm qahramonlarining rasmlarini chizishni yoqtiraman. Qo'limga qalam tushib qolsa, bas, ko'z oldimga birorta manzarani keltiraman-da, uni havas bilan chiza boshlayman. Chizgan rasmlarimni turli tahririyatlarga yuborib turaman. Bu safar ularni bolalarning sevimli gazetasi bo'lmish «Tong yulduzi»ga yuborishga ahd qildim. Rasmlarimga baho berish siz aziz tengdoshlarimdan.



Maftuna ZIKIROVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 18-umum-ta'lim
maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi.

VAQTIMNI ZOYE KETKAZMAYMAN



– Men poytaxtimizdagi 59-maktabning 4-«A» sinfida tahsil olaman. Ustozimiz Roza opa bizga bo'sh vaqtimizni mazmunli o'tkazishimiz uchun maslahatlar beradilar. Shirinso'z ustozimning maslahatlaridan kelib chiqib, akalarim Ziyovuddin va Shahobiddin bilan birga darsdan bo'sh vaqtlarimizda turli mashg'ulotlarga qatnaymiz. Bundan tashqari, kompyuter o'yinlariga ham qiziqamiz. Sinfimiz xitoy tiliga ixtisoslashgan. Men kelajakda bu tilni mukammal o'rganib, tarjimon bo'lmoqchiman. Bo'sh vaqtlarimda ko'proq rasmlar chizishga qiziqaman. Turli manzaralar rasmlarini chizib, akalarimga ko'rsataman. Shu vaqtgacha rasmlarimga ular baho berib kelishardi. Endi navbat sizga.

Kamoliddin XO'JAYEV.



Zebuniso TOHIRIYON

QIZCHA va BURGUT

Hamisha o'ftob nuri tushib turadigan qishloqda Nozanin ismli qizcha ota-onasi bilan yashardi. Qizcha oilaning yakka-yu yagona farzandi bo'lgani uchun judayam erkato'y va jizzaki edi.

– Men bu taomni yemayman, bu kiyimni kiymayman. Unisi yaxshi, bunisi yomon, deya ota-onasining hol-joniga qo'ymasdi.

– Noz, mening nozigim!-derdi ba'zan otasi jahl bilan erkalashni omuxta qilib.

– Ba'zi oilalar nonga to'yamay, durustroq kiyim-bosh kiymaydi-yu, lekin farzandlari odobli. Sen bo'lsang, asl narsalarga bepisand qarab, bizlarni xunob qilasan...

– Yo'q, otajon! Menga bunaqa emas, unaqa taom yoqadi,-derdi Nozanin otasining gapini bo'lib, oldindan ovqatga ayb qo'yishni kanda qilmay...

Kunlar shu zaylda o'tardi. Bir kuni onasi varaqi somsa pishirib, qiziga dedi:

– Noz, Nozjonim mening! Sen uchun varaqi somsalar pishirdim, yesang joning kiradi, ozroq yegin!

Nozanin yuzini burishtirib, dedi:

– Fu, jon kiritar emish, varaqi somsangizning yog'i ko'p. Yo'q, menga kerakmas, jon kiritadigan narsangizni o'zingiz yeng! Menga pashmak holva bering.

Shu payt qayerdandir burgut paydo bo'lib, qizchani boshi uzra charx ura boshladi. Qizchani qizil rangli ko'yalakchasi diqqatini tortdimi, u pastlab, qizchaga chang soldi va uni osmon-u falakka ko'tarib uchdi.

Qizcha dodladi. Uning ovozi eshitganlar uylaridan chiqib, ko'kka ko'z tikishdi. Nozaninning onasi esa chinqirgancha hovli sahnida qolaverdi. Ko'kka ko'tarilgan qizchani ko'ziga pastdagi uylar kichrayib, bora-bora gugurt qutisiday ko'rindi. Oxiri obod va quyoshli qishlog'i ham ko'zdan g'oyib bo'ldi. Chor-atrof biyday sahro, odam zoti yo'q. Mana, endi harsang toshlar-u baland tog'lar ko'rindi.

Nozanin qo'rquvdan ko'zlarini chirt yumib, yerga tashlab yubormasin degan maqsadda burgutning oyoqlaridan mahkam changallab oldi. Uzoq uchganlaridan so'ng tog' qoyasiga yetib bordilar. Burgut qizchani o'z iniga qo'yib, o'zi yana uzoqlarga uchib ketdi.

Qizcha sekin-asta, avval bir ko'zini, keyin ikkinchisini ochib qarasa, burgutning inida o'tiribdi. Ko'yalakchasini shamol tilka-pora qilgan, sochlari patila. Burgutning temir panjalaridan badani abgor. U yig'lashga tushdi:

– Ona, onajon!-yig'lab iltijo qilardi u.
– Meni bu yerdan olib keting!

Lekin uning iltijosini hech bir jon eshitmasdi. O'rnidan turgisi keldi. Ammo burgut ini tebranib ketib, yiqilib tushishiga bir bahya qoldi. Xas-xashaklar orasidan burgut palaponlarining boshchalari

(Ibratli ertak)

ko'rinib:

– Chiy, chiy, chiy...-deyishdi ular.

– Chiy, chiy, chiy!-Labini cho'ch-chaytirib javob qaytardi Nozanin.

– Nimaligini ko'rmayapsizlarmi? Yaxshisi, hu ana u katta onalaringga aytinglar, meni uyimga oborib qo'ysin!-yalinchoq ohangda dedi u. Afsus, burgutchalar qizchani gapiga tushunmay, uning yuz-betini, oyoq-qo'lini o'tkir tumshuqchalari bilan cho'qib, mudom:

– Chiy, chiy, chiy!-deyishardi.

«Iltimos qilsam, burgut uyimga oborib qo'y a r m i k a n ?» degan umidda burgutni bir-ikki daqiqa, bir soat, ikki soat kutsada, burgutdan dafak bo'lmadi.

Atrofga nazar soldi. Tun zulmati borliqni o'z ko'miga tortayotganini ko'rib, qizchani vahima bosdi. Qorni ham ochdi. Sovuq qotdi... Shu yo'sindagi azob bilan tunni kun qildi.

Tong saharda burgut ham uchib

keldi. Tumshug'ida bir dona katta oq chuvalchang. U nonushtani iniga tashlab, hech narsa demay yana uchib ketdi. Polaponlar chiyillashib, chuvalchangxo'rlikni boshlashdi. Avval chuvalchangni poralab, har biri o'z nasibasini, keyin bir-birining og'zidagini talashib yeyishdi. Ularga qarab, qizchani xayolidan onasi pishirgan varaqi somsalar o'tdi. Xo'rliki kelib, yig'ladi.

Yig'lagan ko'yi uxlab qoldi. Nogahon yana boshi uzra soya tashlab burgut uchib keldi. Bu safar u iniga bo'laklangan tipratan go'shtini tashlab ketdi. Qizchani qorni och emasmi, xomligiga ham qaramay, tipratan go'shtiga tashlandi va uni pok-pokiza yeb, lab-lunjini artdi. Bu holdan burgutchalarning jahli chiqdi.

– Chiy! Chiy!
Chiy!-deya qichqirishdi ular...
Nozanin uzun

hafta kunlarni burgut inida o'tqazdi. Bir kuni qayerdandir, darada qo'lida miltig'i bilan ovchi paydo bo'lib, burgut inini mo'ljallab, shu tomonga kelaverdi. Sinchiklab qaragan edi, uyada bir qizcha o'tiribdi. U bir necha baland-pastliklardan o'tib, burgut iniga yaqinlashdi. O'zi tomon kelayotgan ovchini ko'rgan qizcha ham og'ziga qo'lini karnay qilib, ovoz berdi:

– Hoy-oy-oy!

«Oy-oy-oy» degan aks-sado atrofni chulg'adi. Ovchi qizchani burgutning inidan chiqarib, orqasiga opichlab o'z qishlog'iga olib keldi va unga ust-bosh berib, osh-u ovqat bilan siyladi. Shundan so'ng, qizchani uyiga oborib qo'ydi. Qizchalarining tirik va sog'-salomat ko'rgan ota-ona hushidan ketib, har ikkalasi yotib qolishdi. Nozanin o'z qo'llari bilan varaqi somsalar-u shirmoy kulchalar yopib, ota-onasining boshida parvona bo'ldi. Ko'p o'tmay ota-onasi oyoqqa turdi. Qizcha endi avvalgi injiqlik va jizzakiliklarini unutib, yeb-ichganiga, kiygan kiyimiga shukronalik keltirardi. Mabodo, eski injiqliklari qo'zib qolsa, noxos burgutchalarning ovozi quloqlari ostida jaranglardir:

–Chiy, chiy, chiy...

Tojik tilidan Ilhom ZOYIR tarjimasi.

Boytemir ASANALIYEV,
Qirg'iz shoiri.

QIZIQ...

Yuz-ko'zlarin oshiqmay,
Yuvar edi mushuk.
Tongda emas, oqshomda,
Bet yuvгани qiziq...

Tanchaning yoni issiq,
Biroq targ'il mushuk.
Kechga qadar niqsirab,
Uxlagan qiziq...

Ana shunday mushuk,
Miyovlashi qiziq...

SULTON CHIZGAN RASM

Chizdi chumchuq rasmini,
Qo'ngan qishki daraxtga.
Men Sultondan so'radim,
– Hoy, qarg'alar qayoqda?
Javob ham tayyor ekan,
– Sig'may qoldi varaqqa...

Tursunboy ADASHBOYEV tarjimasi.




PARRANDA GRIPPI AVJ OLMOQDA

Shu kunlarda butun dunyoni larzaga solayotgan, inson hayotiga zomin bo'layotgan parranda grippi xavfi yanada kuchayib bormoqda. Jahonning bir qancha mamlakatlarida bu kasallik avj olmoqda. Jumladan, Turkiya davlatida parranda grippidan halok bo'lganlar soni tobora ortib boryapti. Olimlarning fikricha, H5N1 virusi agar mutatsiyaga uchrasa, odamdan odamga yuqadi.

Bu kasallikni oldini olish maqsadida, butun dunyo mamlakatlari alohida tegishli mablag' ajratmoqdalar. Shu kungacha

liard dollar miqdorida pul ajratilgan.

million dollar mablag' ajratib, ushbu



Dunyo darchasi

Rossiya davlatida ham bu borada talay ishlar amalga oshirilmoqda. BMTning ogohlantirishicha, xavfli kasallik bir necha oy ichida Afrika va Yevropaga ham tarqalishi mumkin.

Shu bois chegara hududlarida sanitariya epidemiologiya xodimlari sayyohlarni, yo'lovchilarni alohida tibbiy ko'rikdan o'tkazib, virus aniqlanmagach tegishli hududlarga kirishga ruxsat berishmoqda. Chet ellarda parranda go'shtini iste'mol qilish, eksport qilish ta'qiqlab qo'yilgan. Virus tarqalgan hududlarda parrandalar yo'q qilinib, tevarakatof tozalanmoqda. Bunday qaltis vaziyatda yurtimizda ham yuqumli kasallikni kirib kelishi va tarqalishining oldini olish maqsadida tibbiyot va sanitariya muassasalari tegishli idoralar bilan hamkorlikda aniq choralar belgilab, aholi orasida tushuntirish ishlarini olib bormoqda. Vrach va hamshiralar maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilib, o'quv mashg'ulotlari olib borilmoqda.

Mahmud ILHOMOV,
dotsent.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

E, bu it aslida sirkchilarniki ekan-da, degan o'y xayolimdan o'tdi. Tomosha ko'rish uchun unga sichqon tutib berish kerak ekan-da. Oqtosh bu o'yinlari bilan tinchimadi. O'zini jonholatda qor ichiga urdi. O'ynayver jonivor, o'ynayver, yana sichqon tutib beraman deb kulaman. U shu qadar kuchga kirib ketgan ediki, hali u yonboshi bilan, hali bu yonboshi bilan qorga sho'mg'ir, pishqirar, qirg'oqqa otulgan baliqdek o'zini ko'tarib-ko'tarib yerga urardi. Daraxtlarning egilgan shoxlarini chaynab, irillaridi. Ayniqsa, oppoq qor ustida orqa oyoqlarida turib, muqom qilib, raqsga tushishlari ichakni uzardi. Qani endi birov bo'lsa-yu, bu manzarani birgalashib tomosha qilsang. Aytib bersa, ishonmaydigan, maromiga yetkazib aytib ham bo'lmaydigan bir hol yuz berayotgan edi-da. Bog'-hovlini boshimga ko'tarib kulayapman-u, birdan ko'zim qor ustidagi qizil dog'larga tushib qoldi. Qon? Nima bo'lishi mumkin? Nahotki jonivor menga o'yin ko'rsataman deb bir yerini qonatib oldi? Oqtoshlab chaqiraman, qani yonimga kelsa. Diqqat qilsam, qon og'zidan kelardi. Oqtosh saldayoq qor ustini xuddi mingta it tepkilagandek payhonlab tashladi. Nihoyat, tinchidi ham. Qor ustida bir pas qornini yerga berib yotdi-da, og'zini yalab yonimga keldi. Qon to'xtagan edi. Men hech narsaga tushunmadim. Og'zi joyidamikan deb yumshoqroq non obchiqib berdim. Hech narsa bo'lmagandek nonni pok-pokiza tushirdi. Men bu o'yin ko'rsatishning boyisini ikki soatlardan keyin bilib qoldim. Qopqonga sichqon tushdi. Bir emas, ikkita. Bolasi ekan. Jonivorlar onasini izlab chiqqanda. Ikkoviyam o'libdi. Men Oqtoshning raqsini yana tomosha qilish umidida sichqonlarni xokandozga solib, tashqariga chiqdim. Ma jonivor, bugun go'shtga to'yadigan kuning ekan, bir emas, ikkita, deb sichqonlarni oldiga tashladim. Ammo Oqtosh sichqonlarni ko'rib shunaqangi qochish qildiki, naq uyning orqasiga o'tib ketdi. Kula-kula qotib qopman. Boya sichqon qorniga tiriklayin kirib ketgan ekan-u, ichagini tishlagan ekan-da. Men bo'lsam xursandchiligidan raqsga tushib beryapti, deb yuribman. Qon qornidan sizib chiqqan ekan-da. Mana endi sichqonni o'ligidanam bezillab qopti, jonivor.

ASILZODA «KUYOVLAR»

Qor bir maromda uchqunlab turdi-yu, asrdan keyin yana tezlashdi. Bugun Boymurod akayam qorasini ko'rsatmadi. Endi kelmaydi, kelsa ertaga keladi. Dadaxon qorovulni ko'rdingizmi deb so'rashini biladi. Ko'rdim, deyishim uchunam bir ko'rinish beradi. Boshqa kunlari so'riga chiqvolib, durbinga tikilib o'tiradi. Sandalga qayta cho'g' qilib solguncha, bir qoshiq ovqat tayyorlaguncha shom ham tushdi. Qish kuni bir tutam deyishardi bolaligimizda.

Biroz kitob o'qish-u, qopqonni ikki marta bo'shatish bilan kun kech bo'ldi. Oqtoshni ko'rdim degandan kulgi bosib keladi. U baribir sichqonlarni yemadi. Nari otib yubordim. Poylab turgan ekanmi, zag'izg'on ilib ketdi.

Shomga azon aytaman deb, ustimga to'nimni kiyib tursam, Oqtosh xavotir bilan xurib qoldi. Dilim bir yorishdi. Ko'nglim hamroh istardi. Kim bo'ldi ekan? Tushdan keyingi poyezda birortasi Toshkangasig'may, chiqib keldimikan? Bilaman, bunday paytda menikigamehmon bo'lishadi. Sandal bor. Hovliga chiqsam, hech kim ko'rinmadi.

Ammo Oqtosh meni qora olib, battar xurishga tushdi. Hatto qiynalib bo'lsayam qor kechib, sim devorgacha bordi. Simdevordan narida ko'zga tashlanadigan biron sharpa ko'rinmasdi. Nimagadir Oqtosh ochiq turgan eshikdan tashqariga chiqishga qo'rqar, ichkarida turib jag'iga zo'r berardi. Shom tog'tomondan bosib kelardi. Qor tezlashgan. Azonni hovlidan tashqariga chiqib, eshikdan ikki-uch qadam narida turib chaqirardim. Oqtosh meni tashqariga chiqa ko'rma degandek, turgan joyidan jonholatda men tomon chopdi. U to'rt oyoqlab sakraganda, qorga ko'milib-ko'milib ketardi. Oqtoshning ko'zida qandaydir tushunib bo'lmas vahima bor edi. U yo'limni to'sib, bir-ikki chirpirak bo'lib aylandi. U meni kimdandir qizg'onardi. Parvo qilmagandek, oldinga yuraverdim. Oqtosh qanday shoshib yonimga kelgan bo'lsa, xuddi shu alpozda yana boyagi joyiga borib, tashqariga qarab xuriy boshladi. Ajabo, men hovlidan chiqsam, mendan oldin yugurardiyu? Nimadan bunchalik o'takasi yorilibdi?


Sim devorning bir tomoni Alibek Rustamovning bog'i, bir tarafi jin ko'chayu, Ikrom Otamurodning yeri edi. Ikrom hali qurilish qilmagan, biy dala. Tashqariga chiqib, Oqtosh xuriyotgan tomonga qor pardasi orasidan bundoq razm solsam, Ikromning yerida bir emas, ikkita asilzoda ovcharka itlar cho'nqayib o'tirishibdi. Ikkoviyam bir xil tusda, katta-kat-ta. Chorvoq suv omboridagi harbiy qismda ko'ruvdim bunaqa itlarni. Vaqti-vaqti bilan itlarniyam «uvalneneyaga» chiqarishar ekanmi, degan o'y ko'nglimdan kechdi. Hoynahoy Oqtoshga iliqib kelishgan bular. Ana halos, deyman Oqtoshga qarab. Shundoq asilzoda kuyovlarniyam shu ahvolda kutib oladimi, voy oyimchayey... Lo'lilik qilishini qarang... Men ularga xayrixohligimni bildirib, hushtak chaldim.

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV



Axir Oqtosh qochsa, shunaqa asilzodalardan qochgani yaxshida, qayoqdagi xashaki itlardan ko'ra. Boymurod aka aytmoqchi o'ziyam asilzoda, avliyo itlardan. Ularni uvalneneyaga chiqib, o'z oyoqlari bilan kelishi katta marhamat-ku.

Oraliq o'ttiz qadamcha kelardi. Bilaman, bunaqa itlar odamga tashlanmaydi. Hushtagimni eshitgach

itlarning biri o'rnidan qo'zg'olib, men tomonga yura boshladi. Biroq, sherigi qo'zg'olmagach, yana orqasiga qaytib borib, joyiga cho'nqaydi. Itlarga andarmon bo'lib, shomni boy beray debman. Shoshib, qiblaga yuzlandim-da, azon chaqirishni boshlab yubordim. Qor yog'ib turganda ovoz uzoqqa ketmaydi. Shuning uchun men bunday paytlarda kekirdakka zo'r beraman. Musulmon jinlar eshitsinlar deyman-da. Azon aytib bo'lgunimcha ko'kragimni ikki enlik qor bosdi. Azon duosini o'qib, itlarga qaragam, ovozim yoqib qopti shekilli, ikkoviyam boplading-da, degandek menga qarab o'tirishibdi. Yoqadi-da, odam zotiga yoqmasligi mumkin, ammo bu jonivorlarga yoqadi. Ular Yaratganga bizdan ko'ra yaxshiroq ibodat qilishadi. Topsy yeyishadi, topmasa sabr qilishadi. Oqtosh hamon sim devorning orqasida akillab nozu-firoq qilardi. Odatda, shom azonini aytgach, eshikni sunnatga binoan ichkaridan tambalab qo'yardim. Bugunam shunday qildim. Nachora asilzoda «kuyov»larning yuziga eshik yopishga to'g'ri keldi. «Kelinposhsha» xohlamagandan keyin nima qildim!

Shomdan keyin saldayoq qor tindi. Hovliqib yog'ishidan ko'nglim sezgan edi. Hoynahoy kuchli shamol bulutlarni tog'dan oshirib, vodiy taraflarga surib ketdi shekli. Kuyovto'ralaram umidlarini uzib ketishdimi, Oqtosh jimib qoldi.

(Davomi bor.)

Izoh: Ayrim so'zlar shevada yozilgan.

ORZU TABASSUMI

Sojida Shaymanova 1989-yil 26-mayda Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, O'zbekiston jamoa xo'jaligiga qarashli G'urjob qishlog'ida tug'ilgan. U o'z qiziqishi va iqtidori bilan «Ijodkor o'quvchilar», «Yosh qalamkashlar», «Iqtidorli bolalar - 2003», «Iste'dodli qizlar» ko'rik-tanlovlarning g'olibi bo'lgan. Hozirda Toshkent shahridagi Sirojiddinov nomli litseyning 9-sinfida a'lo baholarga o'qimoqda. 2005-yilda «ORZU TABASSUMI» deb nomlangan kitobchasi ham nashr etilgan tengdoshingizga omadlar yor bo'laversin deymiz.

TINCHLIK MEHVARI

Salom oppoq tong,
Turfa-turfa rang.
Qushlar sayraydi,
Ko'ngil yayraydi.
Gullar shodumon,
Kun dorulomon.
Pishar issiq non,
Turgin bolajon.

Munavvar olam,
Yonimda onam!
Bularning bari -
Tinchlik mehvari.
Ko'zlarim zavqli,
So'zlarim zavqli,
Tinchlik bergan rang,
Tongdek rang-barang.

Sojida
SHAYMANOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumani.

ORZU

Orzular chaqmoq,
Orzular-chaqnoq.
Qo'ng'iroqgul u,
Yo'lim boshlarmu?
Oppoq orzular,
Nurlarga to'lar.

Ezgulik sari,
Ezgulik bari.
Yetaklasin u,
Muborak orzu.
Oydindir yo'li,
Oq tonglar guli.

HADICHA MAYKL JEKSON BILAN UCHRASHADI



yoshimda qo'shiq aytishni boshlaganman. 4 yoshimda esa katta sahnada yakka o'zim qo'shiq kuylaganman. Menga oyijonim yaqindan yordam berganlar. Ularning urinishlari bo'lmaganida, men ham bu

bilan birgalikda kuyladim. Bir necha marta 30-kanalda «Bolalar soati» ko'rsatuvining boshlovchisi bo'lganman.

– **Bunday yutuqlarga erishish uchun ko'p ishlash kerak. Bu sizga og'irlik qilmaydimi?**

– Ba'zida charchagan kunlarim ham bo'ladi. Ammo o'zim ishtirok etgan ko'rsatuvlarni ko'rganda charchog'im bilinmaydi...

– **Raqsga tushish va ashula aytishdan boshqa nimalarga qiziqasiz?**

– Rasm chizaman. Turli fasondagi ko'ylaklarni tikish jon-u dilim. Shaxmat

o'ynayman. Kirill alifbosida yozilgan kitoblarni bema'lol o'qiy olaman. Shuning uchun ham hozir Meditsina ensiklopediyasini o'qiyapman.

– **Meditsinaga oid atamalarni o'rganayotgan bo'lsangiz, demak shifokor bo'lmoqchisiz, shundaymi?**

– Ha, kelajakda shifokor bo'lish niyatim bor. Yana kelajakda Amerikaga borib, Pop yulduzi Maykl Jekson bilan uchrashish mening eng katta orzuim.

Suhbatdosh: **Zahro KOMILOVA,**
115-maktabning 11-«A» sinf o'quvchisi.

Jilmayib turgan bu qizaloq sizga tanish ko'rinyapti, a? Topdingiz. Uning qo'shiqlarini tinglab, raqslarini ko'rib, allaqachonog havasingiz kelib qolgan. U bilan yaqindan tanishmoqchi bo'lganlar uchun ma'lumot.

I M O M N A Z A R O V A Xadicha To'laganovna – 2000-yil 25-mayda tug'ilgan. Hozir Hamza tumanidagi 7-sonli musiqa maktabining 1-sinfida o'qiydi. O'zbek milliy cholg'u asboblardan chang chaladi.

– **Xadicha, agar sir bo'lmasa, ayting-chi, raqsga tushishni, ashula aytishni sizga kim o'rgatadi?**

– Men birinchi marta 3

qadar mashhur bo'lib ketmasdim.

– **Bilasizmi, siz respublikamizning deyarli barcha bolalariga tanishsiz. Mashhur bo'lish sizga yoqadimi?**


– Kimlargadir yoqishi mumkin. Lekin men kamtarlikni yaxshi ko'raman. Axir kamtarga kamol, deb bekorga aytishmagan-ku.

– **Endi erishgan yutuqlaringiz haqida gapirib bersangiz?**

– 2005-yil O'zbekistonda o'tkazilgan «Little Miss» ko'riktanlovining g'olibasi bo'lganman. «O'zbekiston madaniyati va forumi» jamg'armasining «Kelajak ovozi» Respublika yoshlar mega-tanlovining madhiyasini estrada yulduzlari



QIROL ARTURNING JAJJI SHOQIRDI



Hasanboyning ilk qadami sportga havas bilan boshlangan. Sababi, uning «doda»si sport jonkuyarlaridan.

Balki maqolamizni o'qib, mening ham buvam yoki akam, opam ham sportchi, deya aytarsiz? Ammo sizlar baribir Hasanboydek ashaddiy muxlis bo'lmasangiz kerak-ov. Xo'sh, unda maqolangiz qahramoni qanday bola ekan-a, deb so'rarsiz? Unda keling, Hasanboyning o'zidan bu savollarga javob topaylik:

– Men 1 yoshimdan boshlab tundami, tongdami, buvam bilan aeroportga borardim. Biz u yerda sportchilarimizni kutib olardik. Karnay-surnay qarindosh-urug'lari va do'stlari ularni qutlardilar. Men esa a?- deya hayron bo'lardim. Albatta katta derdim. Hozir ancha katta bo'lib sinfida o'qiyapman. Bir necha olib borgandilar. O'shanda bu

sadolari ostida mashhur sportchilarning sportchilar qanday qilib oltin medal olarkin-bo'lsam, men ham zo'r sportchi bo'laman, qoldim. Shayxontohur tumanidagi 13- maktabning 4-yillar avval buvam 19-marta jahon chempioni Artur Grigoryanni uylariga chempiondan sizdek zo'r bokschi bo'laman deganimda: – Yolg'on gapirmasang, albatta zo'r sportchi bo'lasan,-degandilar. Shu-shu yolg'on gapirmayman. Ishonmasangiz, Artur akam sovg'a qilgan boks qo'lqopimdan so'rang. Hozir men yaxshi ko'rgan chempion Germaniyaning Gamburg shahrida yashaydilar. Men ularni sog'inaman. Kechagina uyimizga telefon qilib, meni so'radilar.

- Zo'r chempionni chaqiring, - dedilar. Shunda:
- Artur aka u yerda nima qilyapsiz?- deb so'radim.
- Mendek zo'r chempion akang Muhammadqodir Abdullayevga murabbiylik qilyapman, - dedilar.
- Tezroq yurtimizga qayting, biz sizning shogirdlaringiz bo'lamiz, deb ishontirdim. Buvamning aytishlaricha, chindan ham Artur akam Toshkentga qaytganlarida yosh bokschilarga murabbiylik qilar emishlar. Axir ular ham yolg'on gapirmaydilar-ku!

Hasanboyning gaplarini Nargiz RAHIMOVA yozib oldi.

NEVARAMGA

Buvijon degan tilingdan,
Bolajonim men aylanay.
Jonginangga men jon bo'lib,
Bir umrga boylanay.

Sen hayotim mazmunisan,
Mehrga to'la ko'zlaring.
Sen hayotim mag'zisan,
Sehrga to'la so'zlaring.

Bolaginamning bolasi,
Qandak o'rikning donasi.
Sen-la tatir bu dunyoni,
Boyligi-yu koshonasi.

Kulguchingdan rohat olgan,
Sendek ne'mat shukronasin.
Manzuraga seni bergan,
Olloh silab peshonasin.

Manzura RAHMON
Mo'min qizi,
shifokor.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Anvar ZOKIROV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Sobirjon SHARIPOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi -58414
Buyurtma N: J 2000

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru
Tel: 144-38-10
144-63-08
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45